

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
TOSHKENT SHAHAR XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
INSTITUTI

“Maktabgacha, boshlang`ich va maxsus ta`lim” kafedrası

*“O`qish turlari va ulardan  
foydalanish texnologiyasi”*

mavzusidagi

**Malaka ishi**

*Bajardi:*

Chilonzor tumanidagi 79-maktabning  
boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Nishonova Saodat

*Kurs rahbari:*

Kafedraning katta o`qituvchisi

Mavlyuda Rahmonovna Is`hoqova

Toshkent-2015-yil

## *O'qish turlari va ulardan foydalanish texnologiyasi*

### Reja

#### Kirish

1. O'qish darslarining maqsad va vazifalari, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati
2. O'qish darslarida qo'llaniladigan metodlar
3. O'qish turlari va ulardan foydalanish texnologiyasi

#### Xulosa

#### **Kirish**

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa fanlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standard (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlanga yo'l ochiladi. O'qish darslarida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.

Shu maqsadda „O'qish kitobi“ darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab lurgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va linchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy- ommabop asarlar kiritiladi.

#### **1. O'qish darslarining maqsad va vazifalari, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati**

O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida

uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Boshlang'ich sinf „O'qish kitobi" darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilishi bilan beigilanadi. Shunga ko'ra, o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga, o'quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnalga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.

O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqlol, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularni uyg'otishdir. Vatanparvarlik, atrofimizdagi olam, mehnatsevarlik kabi mavzular o'qish darsliklaridagi keng qamrovli mavzulardan bo'lib, 2-sinf „O'qish kitobi"dagi „*Ona yurtim-oltin beshigim*" bo'limiga kiritilgan „*O'zbekistonim*" (H.Imonberdiyev), „*Istiqlol*" (J.Jabborov), „*Yur tog'larga*" (U.Nosir), 3-sinfda „*Ona bitta, Vatan yagona*" bo'limidagi „*Vatan haqida she'r*" (A. Avloniv), „*O'zbekim*" (E.Vohidov), „*Vatan mo'tabardir*" (X. Davron), „*Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi*" (T. Malik), 4-sinfda „*O'zbekiston—Vatanim manim*" bo'limidagi „*Serquyosho'lka*" (Z. Diyor), „*Iqboli buyuksan*" (A. Oripov), „*Toshkentnoma*" (M.Shayxzoda), „*Xarita*" (N.Norqobil) kabi asarlar misolida atroflicha tahlilga tortiladi.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzu Vatanimiz o'tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug' siymolar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi asarlar

o'quvchilarni faqat o'tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Ularda Vatanga muhabbat tuyg'usi shu tariqa shakllanadi. Vatanimiz o'tmishi haqida hikoya qilingan asarlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar, jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bo'lsa-da, tushuncha hosil qiladilar. Bu borada ayniqsa milliy istiqlol bilan bog'liq H. Imonberdiyevning „*O'zbekistonim*”,

J. Jabborovning „*Istiqlol*” (2-sinf), A. Rustamovning „*Bayroq nima?*”, A. Obidjonning „*O'ktam avlod*” (3-sinf), S. Barnoyevning „*Mangulikka tatigulik kun*”, E. Malikovning „*Assalom, Neksiya!*” (4-sinf) mavzusidagi asarlari yaqindan yordam beradi.

Tabiatga oid mavzular yordamida o'quvchilar tabiatdagi o'zgarishlar, yil fasllarining almashinuvi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydilar. Bunday mavzudagi asarlar o'quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Tabiat tasviriga oid matnlar ustida ishlashda tabiat bag'riga sayohat uyushtirilib, bolalar kuzatuvchanlikka o'rgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilari bilan uchrashuvlar yoki mavzuga daxldor kinofilmlar namoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi. Umuman, „O'qish kitobi” darsliklaridagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug'atini boyitishga, og'zaki va yozma nuzqini to'g'ri shakllantirish va nutq madaniyatini o'stirishga ham qaratiladi. Amaldagi „O'qish kitobi” darsliklarida materiallarning sinfdan sinfga o'tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengaya borishi hisobga olingan. Masalan, 1-sinfda o'rgatiladigan „*Ajdodlarimiz -faxrimiz*”, „*Ilm — aql chirog'i*”, „*Zumrad bahor*”, „*Kumush qish*” kabi mavzular 2—4-sinflarda ham davom ettirilgan. Bu esa o'quvchilarning oldingi bilimlarini to'ldiradi va boyitadi. Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy-estetik tarbiya bilan

chambarchas bogiab olib boriladi.

Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, mukammalligiga, o'quvchilarning bilim darajasi va yoshxususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratiladi.

O'quvchilar darsliklar yordamida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib yetishishlariga erishish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha DTS va „Ona tili“ o'quv dasturida o'qish ta'limi oldiga qo'yilgan talablarni amalga oshirish sinfda o'qishni to'g'ri tashkil qilish, o'qitish bosqichlari, tamoyillari va metodlari, birinchi navbatda, ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanishga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Umuman olganda, o'qish darslari oldiga qo'yiladigan didaktik vaziialar quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qishlarini shakllantirish.

2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish.

3. Kitobga muhabbat uyg'otish; ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.

4. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamdailmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

5. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnalga muhabbat ruhida tarbiyalash.

6. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o'stirish.

7. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.

8. Elementar adabiy tasavvurlarini shakllantirish.

Shuni unutmazlik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vaziialar boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilmadi.

## 2. O'qish darslarida qo'llaniladigan metodlar

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish kabilar umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta'kidlangan. Ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchifaoliyati doirasini aniq belgilab beradi.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'qish faoliyati barcha predmetdarslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatish yo'l- yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasi kichik yoshdagi o'quvchilarning umumrivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi.

O'qish darslarining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Binobarin, fanning o'zi kabi o'qitish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo'ladi. Masalan, eski maktablarda o'qish quruq yod olish metodiasosida o'rgatilgan bo'lsa, hozir izohli o'qish asosida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, ma'nosini tushuntirishga, o'qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bolishiga mutlaqo e'tibor berilgan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuz, qiroat bilan o'qish, ifodali o'qish nazarda tutilgan.

Hozir maktablarda o'qish izohli o'qish metodi asosida olib borilayotgan ekan, quyidagicha savol tug'iladi: *izohli o'qish nima?*

Izohli o'qishga XIX asrning 60—70-yillarida rus pedagogi K. D. Ushinskiy asossolgan, u o'qishda o'quvchilarni „ongli, tushunib, o'ylab o'qishga“ o'rgatishni alohida ta'kidlaydi va uni „Izohli o'qish“ deb nomlaydi.

Izohli o'qish metodiga K. D. Ushinskiy ishining davomchilari yangiliklar kiritdilar. Korf va Vaxlerev izohli o'qish o'quvchilarga real bilim berish vositasi desa, Vodovozov va Bunakov o'quvchilarga o'qish jarayonida bilim badiiy asar tahlili va asarning tarbiyaviy xarakteri bilan bog'liq holda beriladi, degan fikrni ilgari suradilar.

Professor Asqar Zunnunov o'qitishning mazmuni va usullari haqida fikr

yurilib, o'quvchilarning oldin bilimlarni o'zlashtirishiga, so'ng yod olishlariga e'liborberilishi ta'lim jarayonida izohli o'qish deb nomlanganini ta'kidlaydi. Demak, *izohli o'qish* deb o'ylashga, his qilishga, asarni to'liq idrok qilishga, o'qilganning mazmunini o'zlashtirishga olibkeladigan o'qishga aytiladi. Izohli o'qish asar mazmunini tushunishni, asardagi muhim fikrni, yozuvchi ilgari surayotgan g'oyani anglashni ta'minlaydi.

Izohli o'qish quyidagi tamoyillarga to'liq amal qilingandagina muvaffaqiyatli bo'ladi:

- O'qishni hayol bilan bog'liq holda tashkil etish.
- O'qishning ongli va ta'sirchan bo'lishi uchun o'quvchilarning hayotiy tajribalariga, taassurotlariga asoslanish.
- O'qishni ko'rgazmali tashkil qilish, tabiatga, tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish, hayvonot olami va o'simliklar dunyosini kuzatish, rasmlar, jadvallar, predmetlar bilan taishtirish hamda matnni o'quvchining ifodali o'qishi tarzida olib borish.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida asosan she'rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o'qib o'rganiladi.

Tabiiyki, ularning har biri o'ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi.

Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o'ziga xos usulda o'qib o'rganish taqozo qilinadi.

Badiiy asarni izohli o'qishga yaqin bo'lgan metodlardan biri ***ijodiy o'qishdir***.

Atoqli melodist olim N. I. Kudryashov ijodiy o'qish metodi tarkibiga quyidagilarni kiritadi:

- a) o'qilgan asardan o'quvchilarning bevosita olgan taassurotlarini chuqurlashtirish maqsadiga ega bo'lgan va ularning diqqatini matnning muhim g'oyaviy va badiiy hususiyatlari sari yo'naltiradigan suhbat uyushtirish yoki o'qilgan asardan kelib chiqadigan badiiy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy muammoning qo'yilishi;
- b) o'qituvchining asar o'qilganidan keyin o'quvchilarning asarni tadqiq elish

jarayonida tug'ilgan badiiy kechinmalarini faollashtirish maqsadini ko'zda tutuvchi metodlari.

Ko'rinadiki, ijodiy o'qish izohli o'qishdan farqli o'laroq, to'g'ridan-to'g'ri matn mohiyatini ochishga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Masalan, 4-sinfda J.Oripovning „Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi" asarini ijodiy o'qish metodi asosida o'rganish jarayonida matn mazmuni va shoir g'oyaviy niyatidan kelib chiqib Vatanimiz hududlaridagi aholining yashash tarzi bilan bog'liq milliy xususiyatlar haqida ham atroflicha tushuncha beriladi. 2-sinfda „O'tinchi yigit", 3-sinfda O'tkir Hoshimovning „Xazonchinak", 4-sinfda S. Anorboycvning “Qo'rqqoq” asarlarini ham ijodiy o'qish metodi asosida o'qitish ijobiy samaralar beradi.

### **3. O'qish turlari va ulardan foydalanish texnologiyasi**

**Ifodali o'qish.** Boshlang'ich ta'lim tizimida mantiqiy o'qish (matnni to'g'ri,tushunib, lez (me'yorida) o'qish va adabiy o'qish mukammal o'zlashtirilganidan so'ng ifodali o'qishga o'tiladi. U yod olingan she'riy asarlarni ifodali o'qishni ham o'z ichiga oladi. Ifodali o'qishning muvaffaqiyati o'quvchilarning asar mazmuni, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida muayyan tushunchaga ega bo'lishi bilan bog'liq.

Ohang va intonatsiya she'riy asarlarni ifodali o'qishda qay darajada muhimbo'lsa, nasriy asarlarni o'qishda ham muhim talablardan biridir.

Nasriy asarlarni ifodali o'qishdan oldin unda qanday g'oya ilgari surilayotganini aniqlash zarur. Masalan, 4-sinfda X.To'xtaboyevning “Xatosini tushungan bola” hikoyasini ifodali o'qishdan oldin o'quvchilarga xatosini tushungan bola kim ekanligi, uning xatosi nimalardan iborat bo'lganligi, maqtanchoqlikning illati ekanligi to'g'risida tushuncha beriladi.

Ifodali o'qish oldiga qo'yilgan bu talab M. Abdurashidxonovning “Har kimekkanin o'rar”, Sh.Sa'dullaning “Laqma it”, A.Oripovning “Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi” kabi she'riy hikoyalarini o'qishga ham xosdir.

Boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan ona till o'qish darslari adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. Dasturlaming o'qish va nutq o'stirish bo'limida o'tkaziladigan mashg'ulotlar mazrauniga; o'quvchilarni to'g'ri, ravon, ma'lum

darajadagi tezlik bilan ifodali o'qishga o'rgatish; bolaning ona -vatan, uning tabiati kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqloq g'oyalari ular ongiga singdirish kabi bilimlarni boyitish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi.

O'qish darslarini Davlat talablari asosida hayoliy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog'lab o'tishi uning ta'sirchanligi ongli idrok etishlarini ta'minlaydi. O'qish va nutq o'stirishning ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo'yicha o'qish mazmunini o'qish ko'nikmalarining og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish usullarini, o'qish mashg'ulotlarining yozma nutq bilan bog'lanish kabi masalalar aniq kiritilgan. O'qish darslar davomida o'quvchilar so'zdagi harflarni bir-biriga bog'lab yozish, so'z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobidagi berilgan tartibda yozishga o'rgatiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslari yuqori sinflardagi o'zbek adabiyoti, tarix, geografiya, biologiya va boshqa fanlarni o'zlashtirish uchun dastlabki asosni yaratadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflardagi o'qish darslariga jiddiy e'tibor talab qilinadi. O'qish darslarini talabdagidek olib borish uchun o'qituvchi asosan quyidagilarga e'tibor berishi lozim. 6-10 yoshdagi bolalar bir soatga mo'ljallangan saboqni sabr toqat bilan tinglay olmaydilar. Ularning ruhiy tuzulishi harakatda, xayoli o'yinda bo'ladi. 10-15 daqiqadan ortiq davom etadigan gaplarni tinglay oladilar. Shu tufayli bu sinflarda ta'lim-tarbiya vazifalari, asosan o'yin, ashula, qisqa muddatli qiziqarli suhbat, hikoyalash va ifodali o'qish orqali amalga oshiriladi. Ifodali o'qish turli badiiy va amaliy matnlarni puxta o'zlashtirishning muhim metodlaridan biri sifatida o'qituvchi uchun kalit rolini bajaradi.

**Ifodali o'qish** darslarda o'quvchilarning zerikishiga yo'l qo'ymaydi, aksincha, faollashtiradi, badiiy asarlarga qiziqishini kuchaytiradi, adabiyotga havas uyg'otadi. O'qish darslarida o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatishning, asosan ikki yo'l bor: Dars jarayonida turli matn xarakteridan kelib chiqib, o'quvchilarni ifodalio'qishga o'rgatish; o'qish darslari materiallariga berilgan soatlarni qisqartirish hisobiga maxsus ifodali o'qish dasturlari tashkil etish. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi. **To'g'ri**

**o'qish.** Birinchi sinfda jiddiy ahamiyat berish talab qilinadi. Har bir so'z, bo'g'in va tovushni to'g'ri, eshitarli, talaffuz etilishiga erishish lozim. **Ongli o'qish.** O'quvchi har bir gap, gapdagi so'z, so'zdagi bo'ginlami o'qish jarayonida uning ma'nosini tushunib o'qishi kerak. **Tez va ravon o'qish.** Sekin yoki juda tez o'qish emas, balki gapirganday, o'rtacha tezlik sur'atiga amal qilinib, ham to'g'ri, ham ongli, gaplarni sidirig'asiga ravon o'qishni ta'minlash zarur. Agar o'quvchi, labi labiga tegmay, haddan yashqari tez yoki aksincha sekin, tutilib o'qisa ko'r-ko'rona, ma'nosiga tushunmay qolishi mumkin. O'rtacha tezlikda o'qishga o'quvchi harf tovushlarni o'rganayotgan vaqtdan boshlab asos yaratiladi.

Biroq dastlabki o'rinda to'g'ri va ongli o'qish jarayonidagi o'rtacha tezlik darajasiga erishiladi.

To'g'ri o'qishga o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. So'zlarni bo'g'inlargabo'lib o'qish. Masalan: "Fazliddin" Faz-lid-din, ro'z-no-ma. Shuningdek, buzib o'qigan ayrim so'zlarni to'g'ri o'qiy olmasauni bo'g'in tovushlarga bo'lib o'qigan ayrim so'zlarni ovoz chiqarib-takror o'qish. Tez aytish ham ancha foydali usullardan hisoblanadi. Ongli o'qishga o'rgatish uchun notanish so'zlarga izoh berish, matn yuzasidan berilgan savol topshiriqlarni o'rgatish matn yuzasidan savollar tuzish, reja asosida matn mazmunini qisqartirib, kengaytirib so'zlash kabi usullar ham muhim yordam beradi. **Ravon o'qishda** matndagi tinish belgilariga amal qilinishi lozim. Ifodali o'qishga o'rgatishning eng muhim usullaridan biri o'qituvchining namunalari ifodali o'qishidir. Buning uchun o'qituvchi o'qitishning pauza, urg'u, ohangi, sur'at kabi texnik- nazariy vositalari haqida yetarli bilim mahoratga ega bo'lishi, og'zaki nulq madaniyatini puxta egallashi lozim.

*Ifodali o'qish turlari quyidagilar:*

*1. Yakka o'qish.*

*2. Rollarga bo'lib o'qish.*

*3. Jo'r bo'lib o'qish.*

Yakka o'qishning yuqori bosqichi baralla o'qishdir.

Rollarga bo'lib o'qish X. Eshonqulov . "Qish".

Rollarga bo'lib o'qish uchun “Bo'g'irsoq” ertagini ham o'qisak bo'ladi.

Jo'r bo'lib o'qishning ahamiyati katta. Bunday o'quvchilar bir xil sur'at va ohang bilan o'qishni o'rganadilar.

O'qish mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida o'quvchilar nutq faoliyatining asosiy ko'rinishi bo'lgan ko'nikmalari, matn va kitob ustida ishlash, o'quvchilarning bog'lanishli nufuzini o'stirish, nutq madaniyatini rivojlantirish nazarda tutiladi.

1-sinfda o'quvchilar matnning ongli, to'g'ri va bo'g'inlab sidirg'a o'qishni o'rganadilar o'qish darslaridagina emas, balki barcha predmetlar yuzasidan o'tkaziladigan darslarda hamda darsdan va maktabdan tashqari uyushtiriladigan mashg'ulotlar jarayonida ham tuzatib borishga alohida ahamiyat berishi zarur. Bolalar o'qilgan asarlar yuzasidan berilgan savollarga javob berishga o'rganadilar. Matn ustida ishlash o'qituvchi rahbarligida olib boriladi.

Boshlang'ich ta'limda o'qishning uch turidan foydalaniladi:

### ***1. Ovozli o'qish***

### ***2. Ichda o'qish***

### ***3. Shivirlab o'qish***

**Ovozli o'qish** ovozga asoslangan o'qish bo'lib, unda ta'lim jarayonida keng foydalaniladi. Yod aytish ham ovozli o'qishning bir shaklidir.

**Ichda o'qish** ham tovushga asoslangan, lekin unda ovozsiz o'qiladi.

**Shivirlab o'qish** yarim ovoz bilan o'qishdir. 1 -2 sinfda ovozli va shivirlab o'qishdan foydalaniladi.

3-4 sinflarda ovozli o'qish bilan birga ichda o'qishda ham foydalaniladi. sinflarda ichda o'qish ancha samarali bo'ladi., lekin bunda ichda o'qish mexanik o'qishga aylanmashgi kerak. Ichda o'qish biror maqsadga yo'naltirilishi yani quyidagi turli topshiriqlar asosida bajarilishi lozim:

- She'rni ichingizda o'qib foydali o'qishga tayyorlaning .
- Ichda o'qing, ma'nosi tushunarsiz so'zlarni aniqlang jug'al daflaringizga yozing. Lug'atdan foydalanib ularning ma'nosini izoshlashga harakat qiling:
  - Hikoyani ichingizda o'qib ,uni qismlarga bo'ling.
  - Ichingizda o'qib, ovoz chiqarib to'g'ri o'qishga tayyorlaning.

- Ichingizda o'qing. Tabiatni ko'rinishi tasvirlangan o'rinni toping. Bu kabi topshiriqlar sinfdan-sinfga o'tgan sari murakkablashib boradi.

Ichda o'qish quyidagi afzalliklarga ega:

Bir vaqtning ichida butun sinf o'quvchilari o'qiydi.

Asar matni ustida mustaqil ishlash ko'nikmasi takomillashadi.

O'qituvchi har bir o'quvchining mustaqil ishlash jarayonida o'zlashtirish darajasini aniqlaydi.

Ichda o'qishda ongli o'qishga talab kuchayadi.

Ovozli o'qishning afzalliklari quyidagilar:

O'qituvchi o'quvchilarning xato va kamchiliklarini o'qish ko'nikmalarini aniqlay oladi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar ovoz chiqarib o'qisalar, matn mazmunini tez tushunib oladilar.

- Ovozli o'qishdan kitobxon esletik zavq oladi.
- Ovozli o'qishda ifodalilikka katta e'tibor beriladi.
- Ovozli o'qitish o'quvchilar lug'atini boyitish va nutqini o'stirishda katta ahamiyatga ega.

**Shivirlab o'qish** darsning tashkiliy qismlarida o'qituvch sinf jumali bilan mashg'ul paytda yoki o'quvchilarni darsga tayyorlash bosqichlarida o'tkaziladi. Maktabda o'qishnin bu uch turi almashlab turiladi. 1-2 sinflarda ovozli va shivirlab o'qishdan ichda o'qishga o'tilsa, 3-4 sinfdan ichda o'qishdan ovozli o'qishga o'tiladi.

2-sinfda o'quvchilarga so'zlami butunligicha sidirg'asiga o'qish malakasi shakllanadi. o'qishning to'g'ri ifodali bo'lishiga erishiladi. o'qish sur'ati tezlashadi. Bu sinfda o'quvchilar matnning ayrim qismlarini, qisqa hikoyalarni ichida mustaqil o'qishga o'tadilar. Matn ustida ishlash murakkablashib boradi. Bolalar o'qituvchi rahbarligida asarning asosiy mazmunini aniqlaydilar, qahramonlarning hatti xarakatini ifodalovchi so'z va iboralarni topishga, voqea-hodisalarni so'z bilan tasvirlashga o'rganadilar. Ularda so'z boyliqiga talab ortadi.

3-sinfda so'zlami butunligicha sidirg'a o'qish ko'nikmasi to'la shakllanadi. So'zlami

to'g'ri tanlashga, gap qurilishidagi so'zlarning bir-biriga bog'lanishidan to'g'ri foydalanishga talab etiladi.

4-sinfda o'quvchilar so'zlarni bo'g'inlamay sidiq'a o'qishlari, matnni tez, to'g'ri, ongli o'qiy olishlari kerak. Bu sinfda o'quvchilarni bo'g'inlab o'qishga yo'lqo'ymaslik kerak. Bolalar o'qilgan matn mazmunini mustaqil ravishda qayta hikoya qilishlari, matn yuzasidan sodda reja tuzishlari, uning asosiy mazmunini ajratishlari, o'qilgan matnni tola, qisqartirib tanlab qayta hikoya qilishlari zarur.

Ifodali o'qish va o'zaro nutqiy faoliyat jarayonida bolalarning adabiy talaffuz me'yorlari shakllanadi. O'quvchilar nutqining laollashuvi nutqning grammatik shakllarini to'g'ri qo'llash va to'g'ri talaffuz qilish bolalarning nutqining ravon ifodali bo'lishiga yordam beradi. Ifodali o'qishga o'rgatishda:

- nafasdan to'g'ri foydalanish;
- adabiy til talaffuz normalarini yaxshi bilish;
- so'zbo'g'in va tovushni to'g'ri aniq talaffuz etish.

O'qish vaqtida badiiy asar namunasida ifoda etilgan his tuyg'uni, yozuvchi yoki qahramonning ichki kechinmalarini asarning mazmunini yecha olishga erishish. o'qishdagi normal tezlik o'qilganning ma'nosini to'liq anglab olishga yordam beradi. Normal tezlikda o'qish orqali bola gapdagi asosiy mazmunni anglaydi. Aksincha, ortiq darajada o'qish orqali mazmunini tushunishga to'sqinlik qiladi. o'qish tezligini rivojlantiruvchi asosiy shartlardan biri to'g'ri o'qishdir. o'qish tezligini oshirish uchun bolalar ravon o'qiydigan bo'lishi kerak. 1-sinfda o'quvchilar o'qish tezligi davlat talablariga nisbatan 25-30 so'zdan iborat bo'lishi kerak. 2-sinfda esa 40- 50 so'z, 3-sinfda 60-70, 4-sinfda 80-90 so'zdan iborat bo'lishi kerak. O'qish tezligi o'qilayotganning ma'nosini tushunish va qabul qilishga bog'liq. Juda sekin o'qish ham ongli bo'lishga halaqit beradi. O'qituvchining o'qish tezligi yuzasidan ko'rsatilgan namunasi uning normal holatda so'zlashish tempiga teng keishi kerak. o'quvchilarni ham shunday o'qishga o'rgatish lozim.

O'qish tezligini normallashtirishda quyidagi usullardan foydalanish lozim:

1. Normal tezlikda o'qish namunasini ko'rsalish.
2. Ichida o'qish yuzaki bo'lmasligi uchun topshiriqlar berish yo'li bilan

tekshirish.

3. Ovoz chiqarib o'qishda o'qilganning mazmuni yuzasidan savollarga javob olish. Bunda ba'zi o'quvchilarning tekst mazmuniga qaramay tez o'qishlariga chek qo'yiladi. Ular o'qilganning mazmunini aytib berishga to'g'ri kelishini o'ylab o'qiydigan bo'ladilar.

4. Dialogdan o'qitish. Bunda bir o'quvchi savolni o'qisa ikkinchi javobni o'qiydi.

5. She'r yodlash. Bolalar she'rni o'rta tezlikda o'qishlari kerak. Aks holda ularning o'qishlari ifodali bo'lmay qoladi.

O'qish tezligi daqiqa hisobiga o'lchanganda so'z yoki harf sanaladi. Matn qismlarini navbat bilan o'qitish. Bunda o'qish tezligi past bolalar tez o'qiydiganlarga tenglashgisi keladi. Yoki aksincha. Boshlang'ich sinfni tugatdan o'quvchilar o'qish ko'nikmalari quyidagicha bo'lsa davlat talabiga hos bilimga ega bo'ladilar. Adabiy talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda ongli to'g'ri ongli va o'rtacha tezlikda (ovoz chiqarib) bir daqiqada 90-100, ifodali va ichdan 110-130 so'z o'qiydilar. Sinfda o'tilgan asar yoki asardan parchani mustaqil tarzda ifodali o'qish, o'sha asar yoki parcha qanday mavzuga bag'ishlanganini aniqlash, unda ishlirok etuvchiyangi mavzuni o'qib o'rganamiz. Bobur yaratgan bog'da qovun yetkaza olindimi yoqmi? Dehqonlar shohning g'azabiga duchorbo'lishdimi yoki yo'qmi? degan savolga javob topamiz. Asarni o'qish.

O'qituvchi asarni ifodali qilib o'qib beradi. Asar yuzasidan dastlabki suhbat:

- a) Asarda kim haqida hikoya qilinadi?
- b) Shoh Bobur qovunning o'z yurtida yetishtirilganini qayerdan bildi?
- c) Bobur bog'bonni nima uchun bosh-oyoq sarpo bilan mukofotlaydi?

O'quvchilarga asar qismlarga bo'lib o'qitiladi. Bolalar Bobur yaratgan bog'ida nimalar yetishtirilganiga, nimani yetishlirishning iloji bo'lmaganiga, shoh dehqonlardan nimani talab qilganligi, dehqonlar shohning talabini qondirish uchun qanday hiyla o'ylab topishgani va Bobur buni nimalarga asoslanib bilib qolganiga e'tiborni qaratish vazifasi topshiriladi. So'ngra hikoya qismlariga sarlavhalar qo'yiladi.

Yangi mavzuni mustahkamlash

- a) "Bog'i Boburiy" bog'i barpo etildi.

- b) Bogonlarning qiyin ahvoli.
- s) Buburning ko'ngli buzildi.
- d) Bobur bog'bonga rahmatlar aytdi.

Darsni yakunlash:

Bolalar, siz bu hikoya orqali kimning hayotidagi voqea bilan tanishdingiz?Boburning hind yerida qovun yetishtirishni talab qilishdan asosiy maqsadi nima edi?

Bu hikoyada asosiy g'oyanimadan iborat deb o'ylaysiz?o'qituvchi darsda ishtirok etgan o'quvchilaming bilimi qanchalik mustahkam bo'lishiga erishilsa yuqori sinflardagi materialni o'zlashtirish oson kechadi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'qituvchilari bu borada samaraliroq ishlashiga umid bog'laymiz.

### **Xulosa**

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, matn ustida ishlaganda ko'rsatib o'tilgan metodlardan foydalanilsa, o'quvchilarning mavzuni to'la va aniq bilishlariga erisha olamiz.

Shundagina o'quvchilar o'qigan mavzularini mustaqil o'zlashtira olishiga, atrof-muhit, ahloqiy-estetik,dunyoqarashlarining shakllanishiga chuqur mulohaza yuritishga, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarilishigaerisha olamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Umumiy o'rta' ta'limning davlat ta'lim standari. T.:2005
2. 2-3 sinf "O'qish" darsliklari T.: 2013.
- 3.R.Ishmuhamedov va boshqalar. "Ta`imda innovasion texnologiyalar". T.: 2008
4. Internet saytlari:  
[www ZiyoNet.uz](http://www.ZiyoNet.uz)  
[www Google.uz.](http://www Google.uz)  
[www Bilimdon. uz](http://www Bilimdon. uz)

